

Shahrisabz – Kitob Hududuning So‘ngi O‘Rta Asrlar Davri Mudofaa Inshootlari

Abduraxmonov Ikrom Isomiddinovich

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasining o‘rta asrlar davriga doir mudofaa inshootlarining arxeologik o‘rganilishi, ularning xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlari: Qashqadaryo vohasi, qo‘rg‘on, mudofaa inshootlari, o‘rta asrlar.

So‘ngi o‘rta asrlarda nafaqat Qashqadaryo vohasining, balki umuman O‘rta Osiyoning tarixini o‘rganishda shu davrda vujudga kelgan mudofaa inshootlarni o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Mudofaa tizimini yaratishda mutaxassislar, avlodlar tajribasidan keng foydalananganlar. Shaharlar, aholi manzilgohlari, savdo yo‘llari, daryo kechuvlari va boshqa muhim joylarni himoya qilishda qalin devorlar, qo‘rg‘onlardan keng foydalanilgan. Ularning barchasi birgalikda o‘lkani himoya qiluvchi yagona mudofaa tizimini tashkil etgan.

Shahrisabz – Kitob mudofaasida muhim o‘rin tutgan «Chim» mudofaa devori juda katta hududni o‘z ichiga qamrab olgan bu devor Qashqadaryo vohasining sharqiy qismidagi ikki yirik shahar Shahrisabz va Kitobni hamda ularning atrofidagi qishloqlarni o‘rab olgan. Chimning mudofaa devorini o‘rganishda I.Bikchurin ma‘lumotlari muhim manba bo‘lib xizmayi qiladi. Uning Shahrisabz bekligi to‘g‘risidagi maqolasida Chim devorining uzunligini 80 chaqirimdan iborat ekanligi qayd qilingan¹. Shuningdek, Chim Shahrisabz va Kitobdan tashqari uchta ko‘rg‘onni, ya‘ni Shamaton, O‘rtaqo‘rg‘on, Daxyakni va yana bir necha qishloklarni qamrab olganligi ta‘kidlangan.

«Chim» devori to‘g‘risida A.L.Kun ham o‘z kundaliklarida to‘xtalib bu devor to‘g‘risida ma‘lumot berib o‘tadi. U devor uzunligini 88 chaqirimga teng ekanligini aytib, mahalliy aholining devor to‘g‘risidagi fikrlari haqiqatga yaqin deb hisoblaydi. «Chim» uzunligi to‘g‘risida boshqa fikrlarni ham keltirish mumkin. Masalan: G.Yul o‘z tadqiqotida devorning uzunligini 70 chaqirimga teng deb ko‘rsatadi².

«Chim» devorining eng muhim jihati tashqi dushmandan himoya qilish maqsadida qurilgan. U qo‘rg‘onlar va tuxxonalar bilan kuchaytirilgan. «Chim» devori tashqi dushman xavfi kuchaygan kezlarda barcha mudofaa inshootlari qatorida ta‘mirlab turilgan, ya‘ni unga muhim mudofaa vositasi sifatida qaralgan. Misol uchun, XVIII asr ikkinchi yarmida, Xo‘jaqul tomonidan XIX asrning 30 – yillarida, Hakimbek va Hurrambeklar tomonidan ta‘mirlanganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar bor³.

¹Бекчурин. М. Шахрисабзское владение по рассказам Джурабека и Бабабека // Туркестанский сборник. –СПб., 1873. – Т. 60. – С. 84–92

²Юль Г. Очерки географии и истории Верховьев Амударьи. Спб., 1873, С.65.

³ Мухаммедов Х. «Стена Кампирак» Из истории древних оборонительных сооружений в Узбекистане. ОНУ, 1961. №1. с.44.

Chim devorining qurilish davri to'g'risida turli xil fikrlar mavjud. O'rta Osiyoning ko'pgina joylaridagidek Shahrisabz va Kitobda ham qurilish ishlarida guvalaklardan foydalanganligini inobatga olib, uning qurilish davrini XVIII–XIX asr boshlariga oid ekanligi ta'kidlangan⁴.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Chim ko'rg'onini kenagas urug'i vakillaridan bo'lgan Nazarbek buyrug'iga ko'ra qayta tiklangan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Chim o'zining dastlabki ko'rinishini keyinchalik saqlab qola olmagan. Turli davrlarda uning ayrim qismlari o'zgarib turgan.

Chim mudofa devoridan tashqari vohada ko'pgina to'pxona va qo'rg'onlar ham mavjud bo'lib, ular o'lka mudofaasini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan. Kitob tumanida joylashgan Pistaxon qo'rg'oni strategik jihatdan muhim joyda joylashgan. Qo'rg'on beshburchaksimon shaklda bo'lib, bu yerda artileriya uchun uchta tekis maydonchalar qurilgan. Qo'rg'onning shimoliy – g'arbiy burchagida ark joylashgan. Ark o'lchamlari 42x48 metr bo'lib, devor qoldiqlarining balandligi 8 metrni tashkil qilgan. Qo'rg'on hovlisining o'lchamlari 115x165 m dan iborat bo'lgan. Hozirgi paytda qo'rg'on hududidan yo'l o'tgan bo'lib, qo'rg'on devorlari qariyb saqlanib kolinmagan. Qo'rg'on to'g'risida ilk ma'lumotlarni YE.K.Meyendorf keltirib o'tadi. Muallif o'z kundaliklarida Pistaxonni Jovuz, Yakkabog' va O'rtaqo'rg'onlar bilan bir qatorda Shahrisabz bekligiga bo'ysunuvchi shahar sifatida tilga oladi⁵.

Kitob tumanining Qusam qishlog'ida joylashgan G'oyibotatepa qo'rg'oni Kitob bekining qarorgohi hisoblangan. Qo'rg'on devorlari paxsadan qurilgan bo'lib, qo'rg'on ichida bekka qarashli hovlilar mavjud bo'lgan. Qo'rg'onning devori shimoldan janub tomonga cho'zilgan bo'lib, hovli o'lchamlari 120x335 m. ga teng hovliga janub tomonnan kirilgan. Hozirgi kunda devorning juda kam qismi saqlanib qolingan.

Yana bir Kitob beki qo'rg'oni – Qo'rg'ontepa nomi bilan atalgan bu qo'rg'on yuqori Oqboy qishlog'ida, joylashgan bo'lib, uning umumiy o'lchamlari hovlisi bilan birgalikda 250 – 265 m x 90 -125 m. ni tashkil qiladi. Qo'rg'on hovlining sharqiy tomonida joylashgan bo'lib, uning o'lchamlari 50x50 m ga, teng. Hovli paxsa devor bilan o'ralgan tashqi tomondan devorni o'rab turgan handak izlari saqlanib qolgan. Qo'rg'on tekis yerdan 15 metr balandlikda qurilgan bo'lib, yuqori qismi paxsa devor bilan o'ralgan. Devor burchaklarida burj izlari saqlangan. Qo'rg'onga kirish darvozasi sharqiy tomonda bo'lgan.

Bek qo'rg'onlari bilan bir qatorda Qusam qishlog'ida joylashgan Sarvontepa yodgorligi to'g'risida to'xtab utish lozim. Bu yodgorlik ikki qismdan ark (sitadel) va hovlidan iborat ark o'lchamlari 40x45m. bo'lib, balandligi 8 metrga teng, hovli kengligi 145x200m. uning atrofini handak o'rab olgan. Kirish joyi shimol tomonda ark yaqinida joylashgan.

Kitob dastlab kichik qo'rg'on sifatida vujudga kelgan bo'lsada, tez sur'atda o'sib borib, shahar sifatida shakllandi. XVIII asr oxirlarida Kitob shahri devorlar bilan o'ralgan bo'lib, guzarlar, turli jamoat inshootlariga ega bo'lgan shahar tusini olgan. XVIII-XIX asrlarda Kitob murakkab shaklga ega, g'arbdan-sharqqa tomon shahar tusini olgan. O'lchamlari g'arb-sharq yo'nalishida 2000 m., shimol-janub yo'nalishida 750 m.ga teng bo'lgan. Shahar devori Shahrisabz shahar devorining janubiy qismi kabi asosan paxsadan qurilgan bo'lib, ta'mirlash vaqtida guvala va xom g'ishtlardan ham foydalanilgan. Hozirgi kunda bu devor deyarli saqlanib qolinmagan.

Kitob shahrida oltita darvoza bo'lib, shimoliy tomonda Samarqand darvozasi, sharqiy tomonda Kunchiqar darvoza, janubiy tomonda Sharbatxona, janubiy – g'arbiy tomonda Xo'ja – Ro'shnoiy, shimoliy – g'arbiy tomonda Charimgarlik darvozalari bo'lgan.

Shahrisabz tumani hududida bunday mudofaa qo'rg'onlari nisbatan kam saqlanib qolgan. Hozirgi vaqtga kelib, mudofaa qo'rg'onlarining ko'pchiligi saqlanib qolmagan. Chim devori ichki qismida

⁴Массон М.Е. Пугаченкова Г.А. Шахрисабз при Темуре и Улугбеке..., с.29.

⁵ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару / Предисл. Н.А. Халфина. – М.: Наука, с.79.

joylashgan uchta yirik qo'rg'on – Shamaton, O'rtaqo'rg'on va Daxyakdan faqat O'rtaqo'rg'ongina saqlanib kolgan.

Shahrisabz mudofaasida muhim o'rin tutgan qo'rg'onlardan biri Yertepa bo'lib, qo'rg'on to'g'risida D.N.Lagofet qo'rg'onni quyidagicha ta'riflaydi: «Atrofi soy bilan o'ralgan baland tabiiy tepalik, u atrof ustidan hukumron mavqega ega. Baland devorlar va katta maydon qo'rg'onning ancha katta ekanligidan dalolat berib turibdi».

Shahrisabz va Kitobni o'rab turgan umumiy devordan tashqari har bitta shahar o'zi alohida devor bilan ham o'ralgan. Shahrisabz shahar devorlari to'g'riburchak shaklida bo'lib, shimoldan janubga tomon cho'zilgan.

XIV asrda shahar to'rtta darvozaga ega bo'lgan bo'lsa, XVIII – XIX asrlarga kelib, darvozalar soni ko'payib oltitaga yetgan. Shimoliy tomonda Ark va Qalmoq darvoza, sharqiy tomondagi Kunchiqar darvoza, g'arbiy tomondagi Qushxona darvoza, janubiy tomondagi Charmgar darvoza hamda devorning janubiy – sharqiy burchagidagi darvoza Simxona darvoza deb nomlangan.

Shahrisabz beki qo'rg'oni xalk orasida Shahrisabz Afrosiyobi nomi bilan yuritilgan bo'lib, mahalliy mualliflar asarlarida ham u shu nom bilan atalgan. XVIII asrda vujudga kelgan bek qo'rg'oni Shahrisabzning shimoliy tomonida, shahar devorining «Darvozayi – Ark» deb nomlanuvchi darvozasi yonida joylashgan. Shahar devorining shimoliy qismi qo'rg'onining ham devori vazifasini bajargan. Boshqa uch tomondan ham qo'rg'on paxsa devorlar bilan o'ralgan bo'lib, Oqsaroy xarobalari ham mazkur qo'rg'on tarkibiga kirgan. Qo'rg'on ikkita darvozaga ega bo'lgan, uning janubiy tomonda joylashgani Ko'k darvoza nomi bilan atalgan. Ikkinchi darvoza sharqiy tomonda joylashgan bo'lib, To'pxona darvoza deb atalgan⁶. Qo'rg'on darvozasi yonida shaharning asosiy maydoni – Registon joylashgan, shahar hayotiga doir barcha muhim masalalar shu yerda amalga oshirilgan.

G'uzor va Yakkabog'dagi bek qo'rg'onlari ham o'rganilgan, bu qo'rg'onlar haqida qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, G'uzor qo'rg'oni (o'rdasi) G'uzor daryoning shimoliy qismida joylashgan. U to'g'rito'rtburchak shaklida bo'lib, o'lchamlari 130x80 m. ga teng bo'lgan. Qo'rg'on devorining g'arbiy qismi daryo sathidan qariyb 16 m. balandlikda joylashgan. Sharkiy, janubiy va shimoliy tomon, qo'rg'onning boshqa tomonlardagi devorlari yerdan 8 m. balandlikda ko'tarilgan. Qo'rg'onning mudofaasini kuchaytirish maqsadida chuqurligi qariyb 4 m. cha keladigan handaklar qazilgan. M.YE.Masson qo'rg'onni XVIII asrda bunyod etilgan deb ta'kidlaydi. Shuningdek, bu davrda G'uzor bekligining asosiy rakibi Shahrisabz va Yakkabog' beklilari bo'lganligini e'tirof etadi⁷.

Yakkabog' beki qo'rg'oni – Bekliktepa Kashkadaryoning chap soxilida eski Yakkabog'dan janubi – sharqda joylashgan. U beshburchak shaklida bo'lib, atrofi paxsa devorlar bilan o'rab olingan. Devorlar har 140 – 180 m. da minoraga ega bo'lgan. Kirish joylari – darvozalar qo'rg'onning sharqiy va shimoliy g'arbiy tomonlarida joylashgan⁸.

Xulosa

Shahrisabz – Kitob vohasida yana ko'plab turli kattalikdagi XVIII–XIX asrlarga oid qo'rg'onlar mavjudligi aniqlandi. Mazkur davrda Novqat qishlog'idagi Kultepa, Qusam qishlog'idagi Jangaltepa, Qushboshi qishlog'idagi Azimboytepa, Qaychili qishlog'idagi Bolkontepa, Ochamayli qishlog'idagi G'ishttepa kabi boshqa ko'plab yodgorliklar borligi tadqiq qilingan.

Sharqiy Qashqadaryo vohasida so'nggi o'rta asrlarda ham mudofaa inshootlari bunyod etilgan. Voha mudofaa tizimida qo'rg'onlarning ahamiyati katta bo'lgan. Shahrisabz-Kitob o'lkasi

⁶ Массон М.Е. Пугаченкова Г.А. Шахриябз при Темуре и Улугбеке.....С.46.

⁷ Массон С.Е. работы Кешской археолого – топографической экспедиции....С.47.

⁸ Усмонова З.И. Якубов Б.К. истории изучения позднефеодальных крепостей Кашкадарынской области. Тушкент: урта осие тарихи ва археологиясининг долзарб муаммолари. Тошкент, 1995, 40 – 41 б.

mudofaasida muhim o‘rin tutgan Chim mudofaa devorlari juda katta hududni, ya’ni, Qashqadaryo vohasining sharqiy qismidagi ikkita yirik shaharni hamda uning atrofidagi qishlaqlarni o‘z ichiga qamrab olgan.